

**O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA
MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

Norqulov Lutfullo Mamarajovich

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich va maktabgacha ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti

lutfullonorkulov@1985.gmail.com

Nuritdinova Iroda Najmiddin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida matematik savodxonlikni rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda matematik tushunchalarni chuqur o'zlashtirishda interfaol va didaktik o'yinlarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'yin texnologiyalari orqali dars jarayonini qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos o'yin turlari va ularni dars jarayoniga integratsiya qilish usullari ham yoritilgan. Natijada, o'yin texnologiyalari matematik savodxonlikni samarali rivojlantirishda muhim didaktik vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, matematik savodxonlik, o'yin texnologiyalari, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, o'qitish metodikasi, mantiqiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv motivatsiyasi, innovatsion ta'lim.*

Abstract

This article discusses the methodological foundations of using game technologies in developing mathematical literacy in primary education. The importance of interactive and didactic games in increasing students' activity, developing their logical thinking, and ensuring deep understanding of mathematical concepts in the modern education system is analyzed. It also highlights the possibilities of organizing lessons in an engaging way through game technologies, enhancing students' motivation, and forming independent thinking skills. The article also covers types of games suitable for primary school students and methods of integrating them into the learning process. As a result, game technologies are substantiated as an important didactic tool for effectively developing mathematical literacy.

Keywords: *primary education, mathematical literacy, game technologies, didactic games, interactive methods, teaching methodology, logical thinking, competency-based approach, learning motivation, innovative education.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются методические основы использования игровых технологий в развитии математической грамотности в начальном образовании. Анализируется значение интерактивных и дидактических игр в повышении активности учащихся, развитии их логического мышления и глубоком усвоении математических понятий в современной системе образования. Также показаны возможности организации уроков в увлекательной форме с помощью игровых технологий, повышения мотивации учащихся и формирования навыков самостоятельного мышления. В статье рассматриваются виды игр, подходящие для учащихся начальных классов, и способы их интеграции в учебный процесс. В результате доказано, что игровые технологии являются важным дидактическим средством эффективного развития математической грамотности.

Ключевые слова: начальное образование, математическая грамотность, игровые технологии, дидактические игры, интерактивные методы, методика обучения, логическое мышление, компетентностный подход, учебная мотивация, инновационное образование.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning kelajakdagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, matematik savodxonlikni rivojlantirish jarayoni o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni yechish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, dars jarayonida innovatsion yondashuvlardan, xususan, o'yin texnologiyalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Har qanday o'qituvchi bor ekanki, dars jarayonida yangi mavzuni o'z o'quvchisiga iloji boricha tushunarli va osonroq usulda o'rgatish uchun o'zida bor imkoniyatlardan foydalanishga harakat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchilarga qiziqarli o'yinlardan foydalanish yordamga keladi. Dars vaqtida qiziqarli o'yinlarning har xil turlarini qo'llash orqali o'quvchilarni faollashtirish, ularning diqqatini oshirish va rivojlantirish, darsdagi vaqtni tejash kabi yutuqlarga erishish mumkin.¹

Sifatli ta'lim olish shaxsning malaka. jamiyatda o'z o'rnini topishida muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, 2030- yilgacha qabul qilingan sifatli zamonaviy hayotiy "Umumjahon ta'lim Kontseptsiyasida –butun hayot davomida ta'lim olishga sharoitlarda imkoniyat yaratish" g'oyasi ta'lim oluvchilarning sifatli kompetentsiyalarini rivojlantirishga alohida ta'lim egallashi, olishlari, kreativ e'tibor ta'lim (ijodiy) oluvchilarning tafakkurini qaratilgan.

O'zbekiston respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va

harakatga keltiruvchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu barobarida darslarda turli usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar –“Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o'qituvchisini yanada ko'proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ta'limiy tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Ta'lim jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi.

Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi.

O'yin texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati

O'yin texnologiyalari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi hamda o'quv materialini yengil va tushunarli tarzda o'zlashtirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh xususiyatlariga ko'ra o'yin faoliyatiga moyil bo'ladilar, shuning uchun matematik tushunchalarni o'yinlar orqali o'rgatish samarali natija beradi.

Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki hamkorlikda ishlash, tezkor qaror qabul qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar.

Matematik savodxonlikni rivojlantirish metodikasi

Matematik savodxonlikni o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirishda quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Didaktik o'yinlar: sonlar, geometrik shakllar va arifmetik amallarni o'rgatishga xizmat qiladi.

Rolli o'yinlar: o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiradi (masalan, “do'kon”, “bozor” o'yinlari).

Musobaqa o'yinlari: tezkor hisoblash va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Interfaol guruh o'yinlari: hamkorlik va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bu yondashuvlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va matematik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

O'yin texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq etish

Dars jarayonida o'yin texnologiyalarini to'g'ri qo'llash muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi dars maqsadiga mos o'yinlarni tanlashi, ularni bosqichma-bosqich tashkil etishi va o'quvchilarning faolligini nazorat qilishi lozim.

Masalan, "Kim tez hisoblaydi?", "To'g'ri javobni top", "Matematik zanjir" kabi o'yinlar orqali o'quvchilarda tezkor fikrlash va hisoblash ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, vizual materiallar va raqamli vositalardan foydalanish ham o'yinlarning samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'yin texnologiyalari boshlang'ich ta'limda matematik savodxonlikni rivojlantirishda muhim didaktik vosita hisoblanadi. Ular o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi hamda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu sababli, zamonaviy o'qituvchi o'yin texnologiyalaridan samarali foydalanishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1.Yoqubov S., Sobirov O. Boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

2.M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi". – Toshkent: Fan va Texnologiya, 2005.

3.N.U. Bikboyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

4. E.M.Mardanov.Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi.Samarqand. Samarqand davlat universiteti.2021.

5. I. V. Repvoya 1-sinf III qism. Novda. Toshkent- 2023

Ilmiy va metodik adabiyotlar:

1. J.Sultanov,E.M.Mardanov,Q.Ostonov.Matematika.Samarqand. Samarqand davlat universiteti. 2019.

2. E.M.Mardonov,Q.Ostonov.Matematik mantiq.Samarqand. Samarqand davlat universiteti. 2018.

3. E.M.Mardonov.Maktabgacha ta'lim tashkilotida matematik o'yinlarni tashkil etish.Samarqand. Samarqand davlat universiteti.2022.